

## МАКТАBGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH USULLARI VA METODLARI

**Narinboyeva Nilufar Muzaffar qizi**

“Maktabgacha ta'lim  
psixologiyasi va pedagogikasi”  
yo'nalishining 4 kurs talabasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bolalar ijodkorligini rivojlantirishning muhim qismi bo'lib, bu jarayon ularning badiiy didini shakllantirish, ko'rish xotirasini rivojlantirish va ijodiy tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun o'ziga xos bo'lgan asosiy guruxni o'yin usullari tashkil etadi va bu o'yinlardan turli metodlar ichida foydalanish mumkin. Bolalarni tasvirlashning muhim usullariga, turli tasvirlash materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur.

Tasviriy faoliyatni o'rgatish metodlari va usullari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish: Bu usulda bolalarga rasm chizish, loydan va xamirdan shakllar yasash, qurish-yasash faoliyatlari o'rgatiladi. Bolalarga predmetlarni naturaga asoslangan holda chizish o'rgatiladi, bu esa ularda kuzatuvchanlik va detallarni e'tiborga olish ko'nikmasini rivojlantiradi. Mashg'ulotlarni murakkablik darajasiga qarab bosqichma-bosqich tashkil etish muhimdir. Masalan, kichik guruhda mashg'ulotlar 5-7 daqiqa davom etib, katta guruhlarda 30-35 daqiqagacha yetkaziladi.

2. Estetik didni shakllantirish: Mashg'ulotlarda bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish, tabiatdagi go'zalliklarni tushuntirish orqali ularning estetik sezgilarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday faoliyat bolalarning atrof-muhitni san'at asari sifatida qabul qilishiga yordam beradi.

3. Motivatsiya va rag'batlantirish usullari: Mashg'ulot davomida bolalarning ijodkorlik faoliyatini ijobiy baholab, “Barakalla”, “Juda yaxshi chizding” kabi so'zlar

orqali rag'batlantirish ularning o'z ishtiyoqini oshiradi va o'rganish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantiradi.

4. Materiallar bilan ishlash: Bolalarga plastilin, loy va boshqa qo'l mehnati vositalarini ishlatish o'rgatiladi. Masalan, loyni ishlatishda uni tayyorlash usullari, quritish va bo'yash texnologiyalari bolalarga tushuntiriladi. Bu usullar bolalarning qo'l motorikasini va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

5. Ijodkorlikni rivojlantirish: Bolalar o'z tasavvurlariga ko'ra turli shakllar yaratishi uchun ularga imkoniyat beriladi. Masalan, "Kamalak chizish" mashg'ulotida ularga o'z tasavvurlarini chizmaga tushirish erkinligi beriladi, bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Bolalarni tasvirlashning muhim usullariga, turli tasvirlash materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur.

**Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullari.** Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o'rgatish tizimining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki u atrof-muhitni o'rganishda, bilish, hamda uni aks ettirishda muxim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumiylik va yakkalikni ajratish malakasi rivojlangan bo'lsa, shuncha bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog'lik bo'ladi. Lekin kuzatishning o'zi ko'rganni tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Bolalarni tasvirlashning muhim usullariga, turli tasvirlash materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur. Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiylaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tamonidan tasvirlash usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kiradi.

**Naturadan foydalanish.** Tasviriy san'atda naturadan foydalanish deganda, kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishni tasvirlash tushuniladi. Naturadan foydalanib ishlanganda chizayotgan kishining ko'ziga nisbatan naturaning qay holatda turganini hisobga olgan holda ma'lum bir nuqtai nazardan turib, predmet ko'rinishi tasvirlanadi.

Bu naturadan olib tasvirlash xususiyati mashg'ulot mobaynida o'zgacha idrokning rivojlanishiga ko'mak beradi. Bunda asosiysi tomashabinning idroki bo'lib, tekislikda tasvirlangan predmet (rasm, applikatsiya) faqat bir tamondan idrok qilinadi; loydan buyum yasaganda va qurish-yasashda bolalarda naturani o'girib qurish, hamda hajm-shaklni turli xil burilishda tahlil qilish imkoni bo'lishi kerak.

**Mashg'ulotda predmetlarni ko'rib chiqish.** Kichik va o'rta guruxlarda ko'pincha mashg'ulot boshida alohida predmetlar ko'rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko'rsatiladi. Mashg'ulotning qolgan vaqti mobaynida esa, bolalar o'z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko'rgan predmetlariga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojat qilmaydilar. Katta guruxda ham predmetlarni ko'rib chiqish uchun imkon bo'ladi.

**Namunadan foydalanish.** Namunadan foydalanish ko'proq o'rgatish usuliga taalluqlidir. Bolalarning umumiy estetik didlarini oshirish uchun chiroyli predmetlarni tomosha qildirish kerak. Masalan: gilamlar, vazalar, kashtachilik va hokazo. Dekorativ rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar ko'rgan predmetlarini aks ettirib, ulardagi naqshlarni qayta chizibgina qolmay, balki mustaqil ravishda naqshlarni aks ettirib, yorqin rang va shakllarni moslashtirib chizishni ham o'rganadilar. Shuning uchun boshlang'ich bosqichda bolalar namunadan naqsh elementlarini chizib oladilar, keyinchalik elementlarni o'rnini va rangini o'zgartirib boradilar. Bolalar ma'lum bir malakaga ega bo'lganlaridan keyin, bir necha xil namunalarni bolalar ihtiyoriga ko'rsatish mumkin. Ba'zi mashg'ulotlarda tarbiyachi namunani qo'yadi va bolalar ko'rib chiqib, tanishib, tarbiyachining ko'rsatmasisiz mustaqil ravishda ishlaydilar. Predmetli rasm chizish yoki buyum yasashda namuna ko'chirib olish uchun emas, balki tasvirlanayotgan predmet haqidagi tasavvurni aniqlash uchun qo'yiladi.

**Rasmlardan foydalanish.** Rasmlar asosan bolalarning atrof-muxit haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun va tasviriy usullarini, vositalarini tushuntirish uchun xizmat qiladi. Pedagog va psixologlarning tashviqotlari shuni ko'rsatadiki, 2 yoshdagi bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar. Lekin rasmdagi

qahramonlarning o'rtasidagi bog'liqlikni, ya'ni harakatlarni tushunish kechroq, 4-5 yoshlarda yuzaga keladi.

**Tarbiyachi tomonidan ishlash usulini ko'rsatib berish.** Maktabgacha ta'lim muassasida ta'lim jarayonida bolalar o'rganishi kerak bo'lgan tasvirlash ko'nikma va malakalarni o'lchamini aniqlab beradi. Keng bo'lmagan doiradagi malakalarni o'lchamini aniqlab beradi. Keng bo'lmagan doiradagi malakaga ega bo'lgan bola turli xil predmetlarni tasvirlay oladi.

**Bolalar ishlarini tahlil qilish.** Bolalar o'zlari bajargan yoki do'stlari bajargan ishni mustaqil ravishda tahlil qilib, baho berishlari 5 yoshga borib to'la shakllanadi. Kichik guruxdagi bolalar o'z harakatlarini va ularning natijalarini nazorat qila olmaydilar, shuning uchun ular o'z ishlarini bajarayotgan vaqtda mamnun bo'lgan bo'lsalar, ularning natijasidan ham mamnun bo'lishi uchun tarbiyachidan maqto'v eshitishni kutadilar. Kichik guruxda tarbiyachi bolalarning ishlarini baholayotganda tahlil qilmaydi, balki 4-5 yaxshi bajarilgan ishlarni bolalarga ko'rsatadi. Shu bilan birga qolgan bolalar ishlarini ham maqto'v chunki maqto'v bolalarning ushbu mashg'ulotga nisbatan qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Rasmlarni ko'rsatishning maqsadi esa, bolalarning o'z ishlarini natijasiga jalb qilishdir. O'rta va katta guruxlarda tarbiyachi bolalarning ishlarini ko'rsatadi va kamchiliklarini aytib o'tadi. Bolalar kamchiliklarini qanchalik ko'ra bilsalar, shunchalik keyingi rasmlarini ongli ravishda chizib boradilar. Mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalar ishlaridan birini olib, ijobiy tamonlarini ko'rsatadi.

**Og'zaki metod va o'rgatish usullari.** Tasviriy faoliyat mashg'ulotdagi doimo tarbiyachining bolalar bilan suhbatidan boshlanadi. Suhbatning maqsadi bolalar xotirasidagi avvalgi idrok qilingan obrazlarni qayta esga olish va mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini uyg'otishdir. Bolalar o'z tasavvurlari asosida ijod qiladigan mashg'ulotlarda suhbatning o'rnini kattadir.

Suhbat qisqa, mazmunli va his-xayajonli bo'lishi kerak. Tarbiyachi asosiy diqqatini mashg'ulotda qilinadigan ishga qaratadi. Bolalarning mavzu bo'yicha yoki yangi tasvirlash usullari xaqidagi tasavvurlarini aniqlab olishdan avval, suhbat

mobaynida yoki, suhbatdan keyin tarbiyachi kerakli predmet yoki rasmni ko'rsatadi. Topshiriqni boshlashdan avval esa, ish usulini bolalarga ko'rsatadi.

Suhbat o'rgatish metodi sifatida 4- 7 yoshli bolalar bilan ishlashda asosiy rol o'ynaydi. Kichik guruxlarda suhbat bolalar tasvirlashlari kerak bo'lgan predmetni eslatish uchun yoki yangi ish usulini o'rgatish uchun kerak bo'ladi. Bunday hollarda suhbat tasvirlashning maqsadini va vazifalarini bolalarga yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Bolalarning tasavvurlari va hissiyotlari tez jonlanib, ijodiy kayfiyatlari tez yo'qolib qolmasligi uchun suhbat metod sifatida ham, usul sifatida ham qisqa va 3-5 minutdan oshmasligi kerak. Yaxshi uyushtirilgan suhbat mashg'ulotda maqsadga yaxshi erishish uchun qulay sharoit yaratadi.

**Badiiy adabiyotning obrazlaridan foydalanish.** Badiiy obrazni o'ziga mujassamlashtirgan nutq o'ziga yarasha ko'rgazmalikka egadir. Masalan: She'r, xikoya, topishmoq va hokazo. Ifodali o'qilgan badiiy asar ijodiy kayfiyatning oshishiga, tafakkurning, hayolning faol ishlashiga yordam beradi. Shu maqsad bilan badiiy so'zdan faqatgina ifodali o'qish mashg'ulotlarida emas, balki predmetlarni idrok qilgandan so'ng tasvirlash jarayonlarida ham foydalaniladi. Barcha yosh guruxlarda mashg'ulotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda topishmoq aytishdan boshlash mumkin.

**Tarbiyachining ko'rsatmalari va tushunchalari.** Tarbiyachining ko'rsatmalari barcha ko'rgazmali usullari o'z ichiga oladi, hamda o'zi mustaqil o'rgatish usuli sifatida xizmat qiladi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalari uchun og'zaki ko'rsatmalar kamdan-kam beriladi. Bolalarning tasvirlash malakalari yetarli bo'lmay, sezgi analizatorining ishtirokisiz tarbiyachining ko'rsatmasini tushunmaydilar (ko'rish, eshitish, qo'l, tam bilish sezgilari). Agarda bolalar mustaxkam ko'nikmaga ega bo'lsalar, tarbiyachi ko'rgazmali ko'rsatmasiz tushuntirishi mumkin. 5-6 yoshli bolalar uchun bir so'zning o'zi xotiradagi chizish usuli haqidagi tasavvurni eslashga yordam beradi. Tarbiyachining ko'rsatmalari butun gurux bolalariga va alohida bolalarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Butun guruh uchun beriladigan ko'rsatmalar mashg'ulotning boshida beriladi. Ular qisqa, lo'nda, tushunarli bo'lishi kerak. O'rta va

katta guruxlarda tarbiyachi bolalar topshiriqlarini qanday o'zlashtirganliklarini bilish uchun biror boladan topshiriqning ketma-ketligini va qaysi usullardan foydalanib bajarish kerakligini so'raydi. Bunday qayta so'rash yaxshi tushinishlariga yordam beradi. Kichik guruxda tushuntirib, ko'rsatgandan so'ng, tarbiyachi yana ishni nimadan boshlash kerakligini qayta esga soladi. Katta guruhda esa bolalarga: nimani chizishini yoki yasashini, asosiysi nimadan iborat, predmetlarni qanday joylashtirish kerakligi haqida o'ylashni taklif qiladi.

**O'yinli o'rgatish usullari.** Tasviriyl faoliyatda o'yinlaridan foydalanish ko'rgazmali amaliy o'rgatish usuliga kiradi. Bola qancha kichik bo'lsa, o'yin uning tarbiyasida shuncha katta o'rin tutadi. O'yin usullari qo'yilgan masalaga nisbatan bolalarning ishini diqqatini yaxshi jalb qiladi va hayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarning oddiy chiziqli shakllarni chizishga o'rgatish, hamda qo'l harakatlarini rivojlantirishdir. Bolalar tarbiyachining ortidan qo'llari bilan havoda, so'ng qog'ozda turli chiziqlarni chizadilar. Tarbiyachi: «bolakay yo'lda chopib ketyapti», «mashina yurib ketyapti» va hokazo, degan iboralar bilan tushuncha hosil qiladi. Obraz bilan harakatning birlashuvi bola tamonidan chiziqlarni va sodda shakllarni tasvirlash malakasiga ega bo'lishni ancha tezlatadi. Kichik guruxda predmetlarni tasvirlashda ham o'yin usullaridan foydalaniladi.

**O'yinli o'rgatish usullari.** Tasviriyl faoliyatda o'yinlaridan foydalanish ko'rgazmali amaliy o'rgatish usuliga kiradi. Bola qancha kichik bo'lsa, o'yin uning tarbiyasida shuncha katta o'rin tutadi. O'yin usullari qo'yilgan masalaga nisbatan bolalarning ishini diqqatini yaxshi jalb qiladi va hayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarning oddiy chiziqli shakllarni chizishga o'rgatish, hamda qo'l harakatlarini rivojlantirishdir. Bolalar tarbiyachining ortidan qo'llari bilan havoda, so'ng qog'ozda turli chiziqlarni chizadilar. Tarbiyachi: «bolakay yo'lda chopib ketyapti», «mashina yurib ketyapti» va hokazo, degan iboralar bilan tushuncha hosil qiladi. Obraz bilan harakatning birlashuvi bola tamonidan chiziqlarni va sodda

shakllarni tasvirlash malakasiga ega bo'lishni ancha tezlatadi. Kichik guruxda predmetlarni tasvirlashda ham o'yin usullaridan foydalaniladi.

**Amaliy metodlar.** Tasviriy san'atga o'rgatish mobaynida bolalar turli materiallardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Rasm chizish, loydan buyum yasash, applikatsiya turli metodlardan, hamda o'rgatish usullaridan foydalanishni talab qiladi, shu jumladan bolalarda ko'nikma malakalarni hosil qiladigan amaliy metodlardan ham foydalanish talab qiladi. Amaliy metodlardan asosiysi bo'lmish, texnik va ba'zan tasviriy malakalarni o'rgatadigan mashqlardir. Kichik guruxda bu mashqlar bolalar uchun sezilarli emasdir yumaloq shaklli predmetlarni yasashni o'rganib, bolalar koptokni, olmani, apelsinni va shu kabi predmetlarni yasaydilar. Yo'llarini, yomg'irlarni chizib, ular gorizontaal va vertikal chiziqlarni chizishni mashq qiladilar. Katta guruxdagi bolalar oldida esa, to'g'ridan to'g'ri ma'lum bir topshiriq qo'yiladi, chiroyli va to'g'ri shtrix bilan chizishga o'rganish. Shtrixlab chizishni ko'rsatib bergandan so'ng, bolalarga murakkab bo'lmagan predmet konturini (Masalan: uy, qo'ziqorin, olma) chizib olib, uni ozoda qilib bo'yamaslik rasmni xunuk qilib qo'yishini biladilar va sidqidildan mashq qiladilar. Mashqlardan tasviriy harakterga ega bo'lgan topshiriqlarni tushinish uchun foydalaniladi. Masalan: tarbiyachi bir chiziq bilan inson boshining yonmacha qiyofasini chizishni ko'rsatib berganidan so'ng, bolalar bir necha marta odam boshining rasmini qayta- qayta chizadilar. Tarbiyachining vazifasi bolalarning tasviriy faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, u faol va ijodiy bo'lsin. Har bir mashg'ulot faqatgina didaktik vazifasini emas, ya'ni ma'lum bir predmetni tasvirlashni o'rgatish emas, balki boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Shu maqsad bilan tarbiyachi turli xil usullardan foydalanishi mumkin: maslaxat, maqtoov, topshiriqni bajarish usulini ko'rsatmasi (to'liq bo'lmagan), o'yinchoq ko'rsatmasi, eslatma va shu kabilar. Bolani shunday holatga qo'yish kerakki, u o'ylagan o'yini bajarishi uchun o'zi yo'l topsin. Shunday qilib u yoki bu metod va usullarni tanlash quyidagilarga bog'liqdir:

Mashg'ulot mazmuniga va mashg'ulot oldida turgan maqsadga, shu bilan birga, tasviriy faoliyatning vazifalariga;

Bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga;

Bolalar foydalanadigan tasvirlash materiallariga bog'liqdir. Atrof olam xaqidagi tasavvurlarni mustahkamlash maqsadli mashg'ulotlarda, asosan og'zaki metodlar: suhbatlar, bolalarning ko'rganlarini xotiradan qayta eslash uchun yordam beradigan savollar qo'llaniladi.

Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlarida o'rgatish usullari turlichadir, chunki bir obraz turli vositalar yordamida vujudga keltiriladi. Masalan: mazmunli (mazmunli) mavzularda kompozitsiyaga o'rgatish vazifasini rasmda illyustratsiyalarga qarab tushuntiriladi, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari esa pastroqda chiziladi. Bu masala loydan buyum yasaganda shakllarning ularning holatiga qarab joylashtiriladi; yonma-yon yoki ketma-ket va hokazo. Bu yerda alohida tushuncha yoki ko'rsatma berish shart emas. Har bir usuldan o'ylab, mashg'ulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, dasturda berilgan mashg'ulotning mazmuniga nisbatan va asosan ushbu gurux bolalarining qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak. Mashg'ulotda alohida metod va usullar ko'rgazmali va og'zakilari-o'zaro qo'shiladi, mujassamlashtiriladi va bir-biriga umumiy ta'lim jarayonida bog'lanadi. Ko'rgazmalilik bolalar tasviriy faoliyatining moddiy hissiy asosini yangilaydi, so'z esa to'g'ri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarni va tasvirleyotganlarini umumlashtirishni shakllanishiga yordam beradi.

Tasviriy faoliyatga o'rgatishda individual yondashuv, bolalarning qiziqishlarini hisobga olish va faoliyatni qiziqarli usullar orqali tashkil etish muhimdir. Bu orqali nafaqat ijodkorlik, balki muloqot va jamoadagi hamkorlik ko'nikmalari ham shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Теория и методика изобразительной деятельности в детском саду. М.: Просвещение. 2000.
2. Sh.T.Nurmatova "Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi" Uslubiy qo'llanma 2018 y.

3. Chorlieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
7. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
9. Chorlieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.

10. Anvarovna, C. D. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATION. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 58-62.
11. Anvarovna, C. D. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 48-53.
12. Anvarovna, C. D. (2024). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.
13. Choriyeva, D., & Ahmadova, S. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 1(2-3).
14. Durdona, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARNING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
15. Durdona, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.
16. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).
17. DURDONA, C., & SHAHNOZA, K. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING O 'RNI. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(7), 191-196.